Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.433
ORCID: 0009-0000-6241-3968

SURXON VOHASI AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINING O'RNI (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARI)

Narbayeva Dilovar Mamatmurotovna
Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti
tayanch doktoranti
E-pochta: dadinadadina8888@gmail.com

Annotasiya: Ushbu mazkur maqolada tarix va etnologiya fanlarida xo'jalik munosabatlari Surxon vohasi misolidatadqiq qilingan. Tadqiqotning maqsadi avvalo XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshiga oid turli yozma manbalar, ilmiy – tarixiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari va tadqiqotchi tomonidan yig'ilgan dala materiallaridan foydalanib, Sharqiy Buxor mintaqasiga kirgan Surxon vohasi hunarmandchiligida chorvachilik mahsulotlarining o'rnini ochib berishdan iborat.

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxon vohasi hunarmandchiligida chorvachilik xo'jaligiga bag'ishlanib ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat. Ushbu ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib xulosalar berilgan. Xulosa jarayonida Sharqiy Buxoro mintaqasida joylashgan Sherobod, Denov, Hisor va Boysun bekliklarida hunarmandchilik va chorvachilikning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Sharqiy Buxoro, Mang'itlar, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik, Rus tarixchilari, jun gilamlar, savdo-sotiq.

МЕСТО ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В ТРАДИЦИОННЫХ РЕМЕСЛАХ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА (КОНЕЦ 19-ГО И НАЧАЛО 20-ГО ВЕКА)

Аннотация: В статье рассматриваются экономические отношения в дисциплинах истории и этнологии на примере Сурханского оазиса. Целью исследования является выявление места животноводческой продукции в ремеслах Сурханского оазиса, входящего в Восточно-Бухарскую область, с использованием различных письменных источников второй половины XIX века и начала XX века, научно-исторической литературы, архивных документов, а также полевых материалов, собранных исследователем.

Статья посвящена ремеслам животноводства в Сурханском оазисе, на основе общепринятых методов – объективности, исторического анализа, сравнительно-логического анализа, хронологической последовательности – и дается освещение с опорой на научные источники. Данная информация была проанализирована и сделаны выводы на основе научных источников. В обзоре раскрываются особенности ремесла и животноводства в Шерабадском, Денауском, Хисарском и Байсунском княжествах, расположенных в Восточной Бухаре.

Ключевые слова: Восточная Бухара, мангыты, продукты животноводства, ремесла, русские историки, шерстяные ковры, торговля.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

THE PLACE OF LIVESTOCK PRODUCTS IN THE TRADITIONAL CRAFTS OF THE SURKHAN OASIS (LATE XIX AND BEGINNING XX CENTURIES)

Annotation: This article studies economic relations in the sciences of history and ethnology using the example of the Surkhan oasis. The purpose of the study is to reveal the place of livestock products in the crafts of the Surkhan oasis, which is part of the Eastern Bukhara region, using various written sources from the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, scientific and historical literature, archival documents and field materials collected by the researcher. The article is devoted to the livestock industry in the crafts of the Surkhan oasis, based on the principles of generally accepted methods - objectivity, historical analysis, comparative-logical analysis, chronological sequence, and scientific sources. This information is analyzed based on scientific sources and conclusions are drawn. In the conclusion, the specific aspects of crafts and livestock farming in the Sherabad, Denov, Hisar and Baysun beys located in the Eastern Bukhara region are revealed.

Key words: Eastern Bukhara, Mangyts, livestock products, crafts, Russian historians, woolen carpets, trade.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida milliylikni asrash va targ‘ib qilish hamda kelajak avlodga etkazib berish dolzarb vazifalardan biriga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach bu borada amalga oshirilgan ishlar salmog‘i talaygina. Biroq yurtimiz hududlarining geografik joylashuvi, iqlimi, aholisi, xo‘jalik yuritish shakllari turli xil bo‘lib, bir-biridan farq qiladi. Shu sababdan respublikamizning janubiy mintaqasining o‘ziga xos tabiiy iqlimi va xo‘jaligi xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘zbekiston tarixi fanida iqtisodiy munosabatlar, agrar sohadagi o‘zgarishlar, o‘zbek xalqining an’anaviy xo‘jalik tizimi, uning tarixan shakllanishi va rivojlanishi masalalari tarixiy, arxeologik, etnografik aspektda tadqiq etila boshlandi. Biroq xo‘jalikning turli tarixiy davrlardagi rivojlanish tendensiyalarini O‘zbekistonning alohida mintaqalari misolida o‘rganish muammosiga bir qadar kam e’tibor berilgan.

Shuningdek, o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Surxon vohasining XIX asr oxiri –XXI asr boshlaridagi xo‘jalik munosabatlarini tarixiy-xronologik izchillik, hududiy-muammoviy yondashuv asosida ochib berish vatanimiz tarixini yangi ma’lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. O‘zbekiston prezidenti ta’kidlaganidek:” Surxondaryo viloyati – o‘zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o‘rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega”[1, 279].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 15-sentabr “2016 – 2020-yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2592- sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabr “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-77-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevral “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120-sonli qarorlarining qabul qilinishi sohaning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, rivojlanishiga xizmat qiladi.

Surxon vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixiga bag‘ishlangan

tadqiqotlarni uch tarixiy davrga ajratgan holda o‘rganilgan[2, 7].

Birinchici, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yaratilgan Mirza Salimbek, D.N. Logofet, N. Mayev, A.G. Ananev kabi mualliflarning asarlari. Ikkinchisi, sovet davriga mansub V.V.Bartold, A.A. Semenov, A.M.Aminov, A.X.Boboxo‘jaev, H. Ziyoev, I.A. Remez, B.X. Karmisheva, B. Lunin, K. Shoniyozov, K.Z. Xakimova singari olimlarning tadqiqotlaridir.

Uchinchisi mustaqillik davrida H.Z. Ziyoev, G.A. Agzamova, A.X. Doniyorov, D.H. Ziyoeva, Q.K. Rajabov, A.A. Ashirov, Sh.H. Vohidov, N.Musayev, S.N.Tursunov, E.A. Qabulov, S.B.Shodmonova kabi tarixchilarning asarlaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxon vohasi an’anaviy hunarmandchiligida chorvachilik mahsulotlari tarixiga bag‘ishlanib ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Buxoro amirligining sharqiy qismida joylashgan Surxon vohasi XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatiga nazar tashlasak, bu davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan qoloqligi, xususan, o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholining bir vaqtda o‘troqlashish va yarim o‘troqlashish jarayoni kuchayganligi bilan xarakterlanadi[3]. Sharqiy Buxoro deb atalgan jug‘rofiy hududda 10 beklik: Boysun, Denov, Qabodiyon, Qo‘rg‘ontepa, Qorategin, Ko‘lob, Baljuvon, Hisor, Sarijo‘y, Sherobod bekliklari mavjud edi[4, 59]. Xususan Surxon vohasi hududida bu davrda Boysun, Sherobod, Denov bekliklari kirgan.

Buxoro amirligi agrar davlat bo‘lib, aholi katta qismining iqtisodiy hayoti bevosita dehqonchilik, chorvachilik va xalq hunarmandchiligining rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zaro urushlar nafaqat iqtisodni izdan chiqardi, balki aholini o‘zi yashab turgan hududlarni tashlab chiqib ketishga majbur etdi. Mang‘itlar davridan boshlab, mamlakatda o‘tkazilgan siyosiy, iqtisodiy islohatlar natijasida xo‘jalik hayotida, xususan qishloq xo‘jaligida rivojlanish kuzatiladi[5, 89].

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, aholining 85% ini qishloq xo‘jaligida[6, 85], 10% chorvachilik hamda 5 % hunarmandchilikni tashkil etgan deb Meyendorf ta’kidlagan:” Buxoroda qishloq xo‘jaligi-xalq boyligining eng katta manbaidir, unda etishtirilgan ko‘p va turli xil mahsulotlar aholi ehtiyojini qondirish bilan birga savdo rivojida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan”[7, 106].

Chorvachilik Surxon vohasi xo‘jaligida etakchi tarmoqlardan biri hisoblangan[8, 23]. Qulay iqlim, keng yaylovlarning bo‘lishi chorvachilik rivojiga keng imkoniyat yaratgan. Yana muhim tomonlaridan biri chorva mollari boqish uchun o‘simliklar dunyosining mo‘lligi va rang-barangligi, uning davriy ketma-ketligidir.

Vohada, o‘simliklar dunyosi iqlim sharoitiga qarab va yuqoriga ko‘tarilib borishi bo‘yicha quyidagicha joylashgan. Cho‘l, adir, tog‘ oldi vayaylov(baland tog‘ o‘rmonliklari). Cho‘l mintaqasiga dengiz sathidan 300-500 metr balandlikdagi erlar kiradi. Voha hududining 51.1 foizi shu zonaga to‘g‘ri keladi[9, 179].

Mang‘itlar davrida ham vohaning Sherobod, Denov bekliklari aholisi asosan dehqonchilik, Boysun aholisi esa chorvachilikni lalmi dehqonchilik bilan qo‘shib olib borganlar. Shuni alohida qayd etish lozimki, Sherobod bekligining Sherobod va Pattakesarda istiqomat qiluvchi bir necha o‘n savdogar va hunarmand oilasi mavjudligi haqida yozib qoldirgan[10].

Voha chorva mollarining katta qismi yoz faslida tog‘ yaylovlariga haydalgan. Dengiz sathidan 1700-3000 metr balandlikda

yaylovlar (baland tog‘lar) bo‘lib, bu erda turli-tuman alp o‘tloqlari bo‘lib archa, zarang, uchqat, irg‘ay, olmurut, qorataloq va boshqalar o‘sgan. Hisori qo‘ylar va yilqilar uchun qisqa muddatli yozgi yaylov vazifasini o‘tagan. Surxon vohasining tog‘ oldi va tog‘-yaylov zonasi umumiy maydonning 48. 9 foizini tashkil etadi[11]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o‘simliklar dunyosining davriy ketma-ketligi voha chorvachiligi rivojida muhim omil sanaladi. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida vohada istiqomat qilgan aholini 2 guruhga: o‘troqlashgan va yarim o‘troqqa bo‘lish mumkin. O‘troq aholi chorvachilikni dehqonchilik bilan birga qo‘shib olib borgan, dehqonchilik etakchi o‘rin tutgan, yarim o‘troq aholi xo‘jaligida dehqonchilik chorvachilik bilan qo‘shib olib borilgan, bunda chorvachilik etakchi o‘rinda turgan[12].

O‘troq aholining chorvachilik bilan shug‘ullanishining o‘ziga xos sabablari bor.

Birinchidan, dehqonchilik uchun er haydashda, xirmon yanchishda, tegirmon, juvozlarni yurgizishda, transport (ulov) vazifasini bajarishda chorva mollari: ot, ho‘kiz, tuya, eshakdan foydalanilgan.

Ikkinchidan, dehqon oilalarini go‘sht, sut, qatiq, jun, teri bilan chorva mollari ta'minlagan[13], uchinchidan, dehqon ekini hosildorligini oshirishda qo‘y, sigir porisi o‘g‘it vazifasini o‘tagan. Qolaversa, chorvachilik mahsulotlari vohaning ichki va tashqi savdosida asosiy tovar vazifasini o‘tagan[14, 24].

Surxon vohasida chorvachilikning qo‘y-echki, sigir, ho‘kiz, ot, eshak katta miqdorda boqilgan. Denov, Yurchi, Boysun, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on, Sherobod tog‘-adirlarida katta miqdorda chorva mollari boqish imkoni bo‘lgan. Qorako‘l qo‘ylari Denov, Sherobod, Sho‘rchi, Boysun, Jarqo‘rg‘on hududlarida boqilgan, qorako‘l terilari asosiy daromad manbai hisoblanib, tashqi savdoda yuqori baholangan.

Keyingi davrlarda ham vohada chorvachilik rivojiga alohida e'tibor berilgan, chorvachilikning etakchi mavqeni egallaganini rus savdogari Mazov 1886-yili yozgan “По чужим и своим наблюдением” (O‘zgalarning va o‘zimning kuzatishlarim) nomli maqolasida Buxoro amirligida 6 mln bosh qo‘y va echki borligini qayd etib o‘tadi. Kapitan Pokotilo Buxoro amirligining markaziy bekliklari tarkibida bo‘lgan, Surxon vohasi bekliklarida chorvachilik rivojlangan tarmoq bo‘lganligini statistik ma'lumotlar asosida tatqiq qilgan[15, 65].

Surxon vohasi hududida 5-15 ming kishi istiqomat qiladigan shaharlar jumlasiga Sarijo‘y, Yurchi, Denov, Sherobod kabi shaharlar kiradi[16, 24]. Denov, Boysun va Sherobod qo‘rg‘onlarida istiqomat qiluvchi aholi hunarmandchilikni er va chorva bilan bog‘lagan holda olib borgan. Deyarli har bir shaharlik qishloqda o‘z yeri va bog‘iga ega edi[17, 34]. Voha chorvachiligining to‘rt turini ham kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ularda asosiy etakchi tarmoq qo‘ychilik(bu alohida paragrafda o‘rganiladi) bo‘lgan.

Voha chorvachiligida qoramolning ham alohida o‘rni bor. Butun amirlikda qoramolning umumiy soni 1 mln 700 mingni tashkil etgan bo‘lsa[18], Surxon vohasi bekliklarida 242 ming boshdan ortiq bo‘lgan[19].

Tarixiy manbalarda, Surxon vohasi aholisi qadimdan yilqichilikka alohida e'tibor berganligini, birgina Chag‘aniyon amirining 18 ming biyasi va uning yonida toychog‘i bo‘lganligi qayd etilganligi isbot eta oladi[20, 65]. Vohada otning bir necha turi mavjud bo‘lib, ular rangiga qarab saman, jiyron, to‘riq, bo‘z, ko‘k, temir ko‘k, oqyol, chag‘ir va boshqa nomlar bilan atalgan[21, 67]. Otlar birinchi navbatda transport (ulov vositasi sifatida, bunday otlar-salt otlar), ikkinchidan ishchi hayvon(bunday otlar-cho‘bir deb nomlangan) sifatida foydalanilgan.Shuningdek, to‘xtovsiz davom

etadigan bosqinchilik harakatlari ham yilqichilikning rivojiga turtki bergan[22, 126].

Voha chorvachiligida tuyachilikka alohida e'tibor berilganligi manbalarda qayd qilinadi. Tuyalar yarim ko'chmanchi o'troq xo'jalikda yuk tashuvchi, karvonlarni etaklovchi, jun va sut beruvchi zotlarga bo'lingan. Tuya boqish bilan asosan Sherobod va Boysun bekligidagi qo'ng'irotlar ko'proq shug'ullangan[23]. Xususan, Surxon vohasida asosan baquvvat va baland bo'yli bir o'rkachli tuyalardan og'ir yuklarni tashishda, yer haydashda foydalanishgan[24]. Voha chorvachiligining etakchi tarmog'i qo'ychilik hisoblanib[25, 24], aholini go'sht, sut, yog', jun, teri kabi mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutgan[26, 24]. Buxoro amirligi yaylovlarida asosan quyidagi tur qo'ylar boqilgan:[27, 173]

1. Arabi yoki qorako'l qo'ylari.
2. Turkman qo'ylari.
3. Afg'on qo'ylari.
4. Qorako'l va afg'on qo'ylari chatishmasidan olingan qo'y.
5. Qirg'iz qo'ylar.
6. Eron qo'ylari[28].
7. Hisori qo'ylar[29, 32]

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, Buxoro amirligidan Rossiyaga qorako'l teri eksporti o'sib bordi. Agar, 1801-yil Buxorodan Rossiyaga 45, 5 ming rubllik qorako'l teri sotilgan bo'lsa, 1841 – 1850-yillarda har yili bu raqam 83,4 ming rublni tashkil etdi. 1910-yilda bu ko'rsatgich 1mln 500 ming donani tashkil etib, yillik daromad 7 mln rublni tashkil etdi[30, 113].

Chorva junlaridan chakmon, paytava, chalbar, turli gilamlar, takinamatlar (takiyamat), xurjunlar, xaltalar, qoplar, to'rvalar, dasturxonlar, qora uylarning kigizlari, ichki bezak anjomlari, uy-ro'zg'or buyumlari, otning bosildirig'i, to'shoyili, digili va iplar (arqon, chilvir va chijimlar), tivitdan salla, jamalak, fo'ta, ishtonbog' va boshqa narsalar tayyorlangan. Ayniqsa, vohada tuya junidan chakmon tayyorlash keng yoyilgan[31, 24]. Olima Б.Х.Кармышева urchuqning turlari sakkizta bo'lganini ta'kidlaydi[32, 257]. Urchuqda jun yigirilib, so'ng kalavalangan. Kalavalangan iplar to'zitilib, rang berilgan va quritilgan. Bo'yalgan iplar o'rmakda to'qilgan. Qo'y junidan asosan gilam, digil, dasturxon, joynamoz, turli xil qoplar, xaltalar, to'rvalar, qora uy bog'ishlari, qo'rlari, otma bovlari, tizmalar kabi narsalar to'qilgan.

XULOSA. Xulosa qilganimizda tarixdan ma'lumki, Surxon vohasining o'ziga xos tabiiy-geografik sharoiti qadim davrlardan boshlab aholi xo'jaligining turli yo'nalishlarini qaror topishiga olib kelgan. Har bir moddiy va ma'naviy madaniyat (xo'jalik, turmush tarzi va h.) har xil narsalarda o'z aksini topgan xususiyatlardan iborat. Har bir xalqning xo'jalik madaniyati o'z mantiqiga ega. Ayni shu mantiqdan kelib chiqib har bir xalqning xo'jalik madaniyatidagi prinsipial birlamchi va ikkilamchi darajali ahamiyatini tushuntirish mumkin bo'ladi. Har bir xalqning yaratgan xo'jalik modeli, turmush tarzi takrorlanmas va o'ziga xos hodisaligi aniqlandi.

Surxon vohasida ishlangan ko'nchilik mahsulotlari nafaqat ichki balki tashqi bozorlarda ham xaridorgir bo'lgan.

Haqiqatan ham, Termiz va Sherobod hududida to'qilgan gilamlar nafaqat voha bozorlarida, balki O'rta Osiyoda, hattoki, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida mashhur bo'lib, yuqori narxlarda sotilgan. Hattoki, bir qancha gilam turlari Parij shahridagi ko'rgazmalardayuqori baholarga erishgan[33].4x2,5 hajmdagi gilamlar 30-40 rubl narxda baholangan[34, 29]. Sherobod bekligi tog' qishloqlarida to'qilgan gilamlarni savdogarlar Qarshi, Kerki va Shahrisabz bozorlariga, hatto Amudaryo orqali Afg'oniston va Hindistonga ham olib borib sotganlar[35, 377].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017 – 279-бет.
2. Qabulov Eshbolta Atamuratovich. XVIII asrning ikkinchi yarmi– XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. 07. 00. 01 – O'zbekiston tarixi bo'yicha tarixfanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi. Toshkent – 2018. 7-bet.
3. Чехович О.Д. К истории Узбекистана ХВИИИ в.// Труды Ин-та востоковедения АН УзССР.в. ИИИ.-Ташкент, 1954. – С. 56.
4. Искандаров Б. И. Восточная Бухара и Памир во второй половине ХИХ в. Ч. И. – Душанбе, 1963. – С. 111.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – С. 89.
6. Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 85.
7. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – С. 106.
8. Пол.Матвеев. По Бухарским и Афганским владениям // Туркестанский сборник.- Т.524. – С. 99; Полк. Галкин. Краткий военно-статистический очерк в Бухарском ханстве и в южной части Самаркандской области – С. 20; Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям – С. 23.
9. Сатторов А. У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. Геогр. фан. ном. дисс… – Тошкент: ЎзМУ, 2009. – Б. 179.
10. ЎзР МДА. И- 3-жамғарма, 1-рўйхат, 678-иш, 298-варақ.
11. Сатторов А.У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. – Б. 17.
12. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и северный Афганистан. – С. 11; Виг. По вопросам Туркестанского скотоводства// ТВ. – 1910. – №235: Виг. Бескормица и скототорговля // ТВ. –1910. – № 269; Бич туркестанского скотоводства // ТВ. –1910. – № 284; Виг. Поднятии животноводства в Туркестане // ТВ. –1911. № 33; Е-вич. О необходимости развития в Туркестане животноводства. // ТВ. – 1913. – №172; Е-вич Благополучие нашего краевого животноводства // ТВ. – 1914. – № 209.
13. Пещерева Е.М. Молочное хозяйство горных таджиков и некоторые связанные с ним обычаи.-Ташкент, 1927; Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. – Душанбе, 1954; Абдураимов М. Пережитки сельской общины в узбекском кишлаке Хумсан// Советская этнография, 1959. № 4.
14. Полковник Матвеев. Поездка по бухарским и афганским владениям – С. 24.
15. Покотило. Отчет о поездке в пределы Централъной и Восточной Бухары в 1886 г. – С. 65.
16. Полк. Галкин. Краткий военно-статистический очерк в Бухарском ханстве и в южной части Самаркандской области. – С. 24.
17. Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – СПб., 1905. – С. 33-34.
18. ЎзР МДА 47-жамғарма, 1-рўйхат, 115-иш, 10-варақ.
19. Покотило. Отчет о поездке в пределы централъный и восточной Бухары в 1886г. – С. 65.
20. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы. – Москва, 1963. – С. 67.

21. Мукаммал қаранг: Колосовский В.П. Лошади Туркестана. – Ташкент, 1910; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.ИИ. – С. 126-127.

22. Логофет Д.Н. Страна бесправия. – С. 48.

23. Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в.в связи с хозяйственной специализatsieй. Товарно-денежные отношения на ближнем и среднем Востоке в эпоху средневековья. – С. 126.

24. Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям. – С. 24.

25. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом.Т.ИИ. – С. 112. ;Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям. – С. 24. Мукаммал қаранг: Арандаренко Г. Скотоводство в Зеравшанской долине // ТВ. –1880. –№ 34, 38, 46; 1881. –№ 2, 3, 8, 9, 10, 12; Падение нашего овцеводства // ТВ. – 1911. – № 166; Скворцов А. Очерк овцеводства и козоводства в Туркестане // ТВ. – 1912. –№ 200, 201, 204; Е-вич. Туркестанские овцы на всероссийской выставке // ТВ, 1912. –№ 262.

26. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и северный Афганистан – С. 12; Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганским владениям. – С. 24.

27. Қабулов Эшболта Атамуратович. ХВИИИ асрнинг иккинчи ярми– XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. 07. 00. 01 – Ўзбекистон тарихи бўйича тарихфанлари доктори (ДСС) диссертатсияси. Тошкент – 2018. 173-бет.

28. ЎзР МДА. 47-жамғарма, 1-рўйхат, 115а-иш, 9-варақ.

29. Любавский А.В. Гиссарские овцы.-М., 1949. – С. 54; Кияткин Н.Ф. Курдючное овцеводство в Узбекистане. – Ташкент, 1952. – С. 32.

30. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – С. 113.

31. Қаранг: Кармышева Б. Х. О товарности женских промыслов (этнографические данные по восточным бекствам Бухарского ханства) // Товарно-денежные отношения при феодализме. – Москва, 1980. – С. 24-68.

32. Кармышева Б. Х. Ткачество и прядение у населения южных районов Таджикистана и Узбекистана (XИХ – начало XX в.)// Проблемы типологии в этнографии. – Москва: Наука, 1979. – С. 257.

33. Ўз Р МДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 1-1варақнинг орқа томони.

34. Ковровые производства // Туркестанский сборник, Т. 512. – С. 29.

35. Полковник Галкин. Военно-статический очерк средней и южной части Сурханской долины// Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – СПб., 1894. – С. 377.